



Fidoyilik –  
Vatanga xizmat demak!

2023-yil 31-oktabr, seshanba,

129 (23.848)-son

**KUN  
HIKMATI**  
Iqtidorli  
insonning  
hurmatini  
joyiga qo'yishni  
o'rganigan

1913-yil aprel oyidan chiqqa boshlagan



[www.zarnews.uz](http://www.zarnews.uz) [@zarnews\\_uz](https://www.facebook.com/zarnews.uz) [@zarnews\\_uz](https://twitter.com/zarnews_uz)



## XXR Madaniyat va turizm vaziri Samargandda bo'ldi

Yurtimizda o'tkazilgan Xitoy madaniyat kunlari doirasida mamlakatimizga tashrif buyurgan Xitoy Madaniyat va turizm vaziri Xu Xepin boshchiliqidagi delegatsiya Samargandda bo'ldi.

Mehmonlarni Samargand xalqaro aeroportida viloyat hokimining o'rbinbosari Rustam Qobilov kutib oldi.

Delegatsiya a'zolari Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vaziri Aziz Abdurahimov va Madaniyat vaziri Ozodbek Nazarbekov hamrohligida Ulug'bek rasadxonasi, Amir Temur maqbarasi, Registon maydoni hamda Shohi Zinda ansambl bilan tanishdi. Shuningdek, "Afrosiyob" muzeysi bo'lib, bu yerda saqlanayotgan osori atqilarni tomosha qildi.

Xitoy Madaniyat va turizm vaziri Samargandga tashrifi doirasida "Ipak yo'li" turizm va madaniyeros xalqaro universitetida bo'ldi. Bu yerda yaratilgan sharoitlar bilan qiziqdi. Universiteda tahlil olayotgan xotiylik talabalar bilan suhbataşdi.

Shundan so'ng Xu Xepin Butunjahon turizm tashkiloti bosh kotibi Zurab Pololikashvili hamrohligida Samargandda yangi tashkil etilgan Xalqaro turizm akademiyasi va "Ipak yo'lda turizm" tematik ofisida bo'ldi.

OBUNA –  
2024

Rustam JABBOROV,  
"Zakovat" bilimdoni,  
jurnalist, yozuvchi:

- Toshkentda  
bo'lsam ham doim  
"Zarafshon"ni  
o'qishga intilaman.  
Siz-chi, o'zimizning  
qadrondan gazetaga  
obuna bo'lishni  
unutmadingizmi?



## SPORTCHILARIMIZ PARAOSIYO O'YINLARIDA QANDAY NATIJAGA ERISHDI?

22-28-oktabr kunlari Xitoyning Xanchjou shahrida IV Paraosiyo o'yinlari bo'lib o'tdi. Qit'aning 43 davlatidan to'rt ming nafr paraatlet ishtirok etgan musobaqlarda O'zbekiston delegatsiyasi tarkibida 108 nafr parasporthchi 11 sport turi bo'yicha qatnashdi. Yakunda vakillarimiz 79 ta medal (25 ta oltin, 24 ta kumush, 30 ta bronza) bilan umumjamoa hisobida 8-o'rinni band etdi.

Bu galgi Paraosiyo o'yinlari 12 nafr samarcandlik parasporthchi 5 sport turi bo'yicha yurtimiz sharafini himoya qildi va 8 ta medal (2 ta oltin, 6 ta bronza)ni qo'iga kiritdi:

**OLTIN MEDAL**  
- paradzyudo (J2 klassida) - Kemran Nurullayev;  
- parayengil atletika (F41 klassida) - Kubaro Hakimova.

**BRONZA MEDAL**  
- paraakademik eshkak eshish (jamoaviy dastur) - Gulchiroy Esanboyeva;  
- parayengil atletika (F35 klassida yadro uloqtirish) - Husniddin Norbekov;  
- parayengil atletika (100 metr uzunlikka sakrash) - Urganch Egammazarov;  
- parayengil atletika (Yadro va Club throw uloqtirish) - Sarvar Azimov;  
- paradzyudo (J1 klassida) - Uljon Amriyeva;  
- parataekvondo - Sanjar Muxtorov.



## FRANSUZ TILI BIRINCHI SINFDAN O'QITILADI



Samarqand shahridagi 43-ixtisoslashtirilgan davlat umumta'l'm maktabida fransuz tili chuqurlashtirilgan holda o'qitiladi. 2018-yilda maktabga fransuz tarixchi olimi Lyusen Keren nomi berilgan.

Bugun mazkur muassasada 1452 nafr o'quvchi rus va o'zbek guruhlarida tahsil oladi. Bolalarغا 1-sinfdan fransuz tili o'rgatiladi.

- Maktabda 12 ta sinf fransuz tiliga ixtisoslashgan, - deydi maktab direktori Gulnoza Cho'tboeva. - Bu sinflarda fransuz tili haftada 5 marta, oddiy sinflarda esa haftada 3 marta o'qitiladi.
- Maktabda 13 nafr fransuz tili o'quvchisi bo'lsa, shundan 8 nafrasi chet tilini bishl bo'yicha C1, B2 va milliy sertifikatiga ega. O'quvchilaridan N.Chasovskiy va A.Kurtova Fransiyaning O'zbekistondagi elchixonasi "STEM fanlarini fransuz tilida o'qitish" grantini qo'iga kiritdi va yaqinda Fransiya davlatida malaka oshirib keldi. Shuningdek, yangi o'quv yilida maktabga Fransiyadan uch nafr o'quvchisi jaib qildik. Ular ayni paytda o'quvchilar-

ga fransuz tilidan dars beryapti hamda o'qituvchilarga metodik yordam ko'rsatmoqda.

Ixtisoslashtirilgan maktab zamon talabiga mos ta'mirlanib, jihozlangan. Har bir xonada elektron doska, stol-stul, parta mavjud.

- Men 2020-yilda Fransiyada malaka oshirib kelganman, - deydi fransuz tili fani o'quvchisi Mahbuba Zayniyeva. - Fransuz tili bo'yicha xalqa-

ga fransuz tilida sertifikatlarim bor. 7-11-sinflariga Fransiyada tomonidan darsliklar berilgan. Biz o'zimizning milliy darsliklarimiz hamda Fransiyadan keltirilgan darsliklar asosida o'quvchilarga dars beramiz. Bugun 11-sinf o'quvchilarining 7 nafrarida chet tilini bishl bo'yicha sertifikat bor.

O'tgan o'quv yilida ushbu maktabni 67 nafr o'quvchi bitirib, ularidan 39 nafrasi olyi ta'limga muassasalariga o'qishga kirgan. Shuningdek, fan olimpiadalarida ham o'quvchilar viloyat bosqichida faxriy o'rinnari qo'iga kiritib kelmoqda. Yaqinda bo'ladigan fan olimpiadasining viloyat bosqichida

ro va milliy sertifikatlarim bor. 7-11-sinflariga Fransiyada tomonidan darsliklar berilgan. Biz o'zimizning milliy darsliklarimiz hamda Fransiyadan keltirilgan darsliklar asosida o'quvchilarga dars beramiz. Bugun 11-sinf o'quvchilarining 7 nafrarida chet tilini bishl bo'yicha sertifikat bor.

O'tgan o'quv yilida ushbu maktabni 67 nafr o'quvchi bitirib, ularidan 39 nafrasi olyi ta'limga muassasalariga o'qishga kirgan. Shuningdek, fan olimpiadalarida ham o'quvchilar viloyat bosqichida faxriy o'rinnari qo'iga kiritib kelmoqda. Yaqinda bo'ladigan fan olimpiadasining viloyat bosqichida

tablerida qozog'istonlik o'quvchilar ta'limga olishmoqda. Biz ham o'z o'quvchilarimizni Fransiyada o'qitish taklifini berdik. Rejalarmiz amalga oshsa, yaqin kelajakda o'quvchilarimiz Fransiyada ta'limga olishi mumkin.

Xurshida ERNAZAROVA.

## 1-NOYABRDAN NIMALAR O'ZGARADI?

qo'llaniladi:

- kamida 100 ming AQSh dollari ekvivalentidagi mablag'larni Xavfsiz turizm jamg'armasiga zaxiraga qo'yish;
- ziyoratchilarining guruh rahbari etib O'zbekiston musulmonlari idorasiga mutaxassislarini tayinlash;
- turoperator shtatida diniy (islomiy) mutaxassisning bo'lishi;
- xizmatlarni voyaga yetmagan fuqarolarga ko'rsatmaslik;
- xizmatlarni Saudiya Arabistoniga podshohligidagi hamkor tashkilot orqali amalga oshirish.

Bunda ulardan litsenziyani qayta rasmiylashtirishda arizani ko'rib chiqish uchun to'lanadigan yig'im

va litsenziya uchun davlat boji undirilmaydi.

- \* Ijtimoiy himoya milliy agentligi tomonidan ijtimoiy xizmatlar va yordamlar eksperiment tariqasida yo'lg'a qo'yiladigan tuman (shahar)larda "Inson" ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish markazlarida og'ir hayotiy vaziyatga tushgan shaxslar uchun psixologik yordam ko'rsatish tizimi joriy etiladi.

- \* "Oxirgi milya" tamoyili assosida tadbirkorlar bilan hamkorlikda aholi sonadonlariga keng polosali internet tarmoqlarini olib borishga qaratilgan hamkorlik dasturi amalga oshiriladi.

- \* Davlat raqamini berishda undiriladigan to'lov stavkalari o'zgartirish kiritiladi.

To'lov stavkalari quyidagi miqdorda belgilanadi:

- avtomotransport vositalariga ro'yxatdan o'tkazish davlat raqami belgilari (RO'DRB) uchun – BHMning 3,5 baravari miqdorida;
- mototransport vositalari, motorollerlar va tirkamalarga RO'DRB uchun – BHMning 1,75 baravari miqdorida;
- Tranzit RO'DRB uchun – BHMning 25 foizi miqdorida;
- Yaroqsiz holga kelgan, buzilgan yoki shikastlangan bir juft RO'DRB o'rniiga yangi RO'DRB berish uchun – BHMning 3,5 baravari miqdorida;
- Yaroqsiz holga kelgan, buzilgan yoki shikastlangan bir dona RO'DRB o'rniiga yangi RO'DRB berish uchun – BHMning 1,75 baravari miqdorida.

Samarqand shahrida faoliyat yurituvchi mas'uliyati cheklangan jamiyat Samarqand yo'llardan muntazam foydalanish unitar korxonasi bilan tuzilgan shartnomaga asosan belgilangan ishlarni bajargan bo'lsa-da, korxona bu ishlarni evaziga xizmat haqini o'z vaqtida to'lab bermagan. Shu sababli MCHJ rahbariyati O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman)ga murojaat qildi.



## BIZNES-OMBUDSMAN tadbirkorlarga davlat idoralaridan 1,5 MILLIARD SO'M undirib berdi

Mazkur murojaatni o'rganish natijalarini bo'yicha tadbirkor manfaatini ko'zlab Samarqand shahri iqtisodiy sudiga da'vo arizasi kiritildi va sud qarori asosida Samarqand yo'llardan muntazam foydalanish unitar korxonasidan MCHJ foydasiga 99,8 million so'm asosiy qarz bilan birgalikda 19,9 million so'm miqdorida penya undirib berildi.

Umuman, joriy yilning 9 oy mobaynida tadbirkorlik subyektlaridan 480 ta murojaat kelib tushdi. Bu murojaatlarning 434 tasi mazmunan ko'rib chiqilib, 240 tasi qanoatlanirildi, 194 tasi yuzasidan huquq tushuntirishlar berildi.

Murojaatlarning asosiy qismi yer, kadastr, arxitektura, infratuzilma, soliq, bank, moliya, kredit, sud va boshqa organlar qarorlarining ijrosi, bojxona, tekshiruvlar va surishtiruv-tergov masalalari bilan bog'liq bo'ldi. Murojaatlarni o'rganish jarayonida ularda keltirilgan vajlarni atroflicha tahsil qilish va imkon qadar qanoatlantirishga e'tibor qaratilmoqda. Misol uchun, Urgut tumanida faoliyat yurituvchi "Yulduz" (nomi o'zgartirilgan) MCHJdan 144,3 million so'm ortiqcha soliq undirilgan. Tadbirkorning ushbu mablag'ni qaytarish yuzasidan soliq idoralariga murojaatlari e'tiborsiz qolgach, bizga murojaat qildi. Masala belgilangan tartibda o'rganilishi, ortiqcha undirilgan pul mablag'larini qonunchilikda belgilangan tartibda qaytarish yuzasidan soliq qo'mitasiga Biznes-ombudsman xulosasi kiritildi. Natijada tegishli summa tadbirkorlik subyektiqa qaytarilishi ta'minlandi.

Qonunchilikka muvofiq, Biznes-ombudsmana tadbirkorlik subyektlarining manfaatlarini ko'zlab davlat boji to'lasmadan, sudlarga arizalar, da'volar va shikoyatlar bilan murojaat qilish huquqi berilgan. Ana shu tartib asosida, viloyatda joriy yilning o'tgan davrida sardurga 7 ta da vo arizasi kiritilib, sud qarorlar asosida davlat idoralaridan tadbirkorlik subyektlari foydasiga 1,5 milliard so'mdan ortiq mablag' undirib berildi.

Bundan tashqari, tadbirkorlarning huquqlari himoya qilinishini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil hamda uning devoni xodimlariga Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 9 ta moddasi bo'yicha ma'muriy huquqbazarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish vakolati berilgan. Shunga ko'ra, davlat idoralarida o'tkazilgan o'rganishlar va tahillar, shuningdeqda, murojaatlarni ko'rib chiqish natijalarini bo'yicha yil boshidan buyon tadbirkorlik subyektlarining huquqlarini buzgan 70 nafar shaxsiga ma'muriy javobgarlikka tortish haqida qarorlar qabul qilindi. Davlat idoralarida faoliyat yurituvchi 108 nafar shaxsga nisbatan Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning tegishli mod-

dari bilan rasmiylashtirilgan ma'muriy ishlarni ko'rib chiqish uchun sud va boshqa idoralarga yuborildi.

Masalan, ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlarni berishning belgilangan tartibi va muddatini buzganligi bo'yicha Qurilish va uyjoy communal xo'jaligi sohasida nazorat inspeksiysi Samarqand viloyati huduyi bo'limi xodimi F.Sh.ga nisbatan Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 2415-moddasi bilan ma'muriy bayonnomma tuzilib, ko'rib chiqish uchun sudga yuborilgandi. Jinoyat ishlarni bo'yicha Samarqand shahar sudsining qarorilani bilan F.Sh.ga nisbatan bazaviy hisoblash miqdorining olti barvari miqdorida ma'muriy jarima jazosi qo'llanildi. Umuman, joriy yilning o'tgan davri mobaynida ma'muriy huquqbazarlik sodir qilgan davlat idoralarini xodimlari ga nisbatan jami 289 million so'mdan ortiq ma'muriy jarimlar tayinlandi.

Aimaliyotda tadbirkorlik subyektlarining bank hisob raqamlaridan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda pul mablag'larini olib qo'yish yoki ortiqcha undirilgan pul mablag'larini o'z vaqtida qaytarmaslik holatlari mavjud bo'lsa-da, qonunchilikda ushbu harakatlarni sodir qilgan shaxslarning javobgarlik masalasi o'chiq qolgan edi. Ushbu masala yuzasidan Biznes-ombudsman tomonidan kiritilgan takliflarga asosan, shu yilning 10-may kuni "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga tadbirkorlarning bank hisobvaraqlaridan pul mablag'larini daxsizligini ta'minlashga qaratilgan qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi. Ushbu qonun bilan Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga kiritilgan 2419-moddaga ko'ra, tadbirkorlik subyektlarining bank hisobvaraqlaridan pul mablag'larini ularning roziligidiz qonunox xilof ravishida o'tkazish yoki olib qo'yish yoxud ortiqcha undirilgan pul mablag'larini o'z vaqtida qaytarmaslik, oz miqdorda talon-toroi qilish alomatlari mavjud bo'lmagan taqdirda, bazaviy hisoblash miqdorining yigirma baravaridan qirg' baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Shuningdek, Jinoi yavobgarlik to'g'risidagi kodeksga kiritilgan 19212-moddaga ko'ra, shunday harakatlar ma'muriy jazo qo'llaniganidan keyin sodir etilgan bo'lsa, jinoi yavobgarlikka tortishga sabab bo'ladi.

Bu ham tadbirkorlik subyektlarining qonuniy huquq va manfaatlarini samarali himoya qilish, ularning faoliyatiga noqonunu aralashishlarning oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Jasur TURSUNOV,  
Prezident huzuridagi Tadbirkorlik  
subyektlarining huquqlari va qonuniy  
manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil  
devonining yetakchi inspektori.


Jasur TURSUNOV,  
Prezident huzuridagi Tadbirkorlik  
subyektlarining huquqlari va qonuniy  
manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil  
devonining yetakchi inspektori.

ning o'rnni to'ldirdim, - deydi I.Sven. - Hozirgi kunda asalarilar oilasi sonini yana 350 taga yetkazdim. Ularning nobud bo'lishi faqat ob-havoga emas, balki dehqonlarning madaniyatiga ham bog'liq. Masa-lan, bir yili kuzda kungabogar ekilgan maydonda asalarilarim bol yig'aman, deb qirilib ketdi. Sababi, maydonga kimyoviy dor sepiqgan ekan. Bu kabi misollarni juda ko'p keltirishim mumkin. Imkonni boricha kimyoviy dorilardan foydalanmaslik kerak. Shunday bo'lgan taqdirda ham biz kabi tadbirkorlar ogohlantirilishim kerak. Dehqonlar bilan kelishib ishlamasak, natijaga erishib bo'lmaydi. Shu yildan boshlab shartnomma asosida g'o'zani changlantirish uchun asalarilarini paxta dalalardira boqishni boshladik. O'zbekistonning tabiatini yaxshi, odamlari ham. Tarjibaga ega kishilar yoshlarga to'g'ri tushuntirishi kerak. Yerga hurmatda bo'lishimiz zarur. Shundagina yet ham bizni hurmat qiladi, boqadi.

I.Sven joriy yilda 7 tonna asal olishni rejalashtirgan ekan, amm...

- Bu yil 1 tonna asal oldim, - deydi u. - Kilo-grami 100 ming so'mdan sotilsa, 100 million so'm bo'ldi. Bu yaxshi, lekin men hammasini bu narxa da sotmayman. Ba'zi mijozlarga arzon narxa, kam ta'minlangan qo'ni-qo'shnilarimga esa bepul bera-

## Raislar jamoatchilik nazorati bo'yicha tushunchaga egami?



**Mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarning samarasi, odamlar hayotida amaliy natija sifatida ko'rinishida ta'sirchan jamoatchilik nazorati muhim omil hisoblanadi.**

Jamoatchilik nazorati - davlat organlari va mansabdor shaxslar faoliyati ustidan fuqarolar, o'zin o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlar hamda ommaviy axborot vositalari tomonidan qonun doirasida olib boriladigan nazorat bo'lib, uni har bir sohada qo'llash va kengaytirish jamiyat taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekistonda mahalla instituti tarixiy ijtimoiy tuzilma sifatida qadam zamonalardan buyon fuqarolarning o'zin o'zi boshqarish tizimining samarali shakli, odamlarga eng yaqin ijtimoiy tuzilma, fuqarolik jamiyatining o'ziga xos instituti bo'lib kelgan. Shu nuqtai nazardan, bugun mahallalar o'z vakolatlaridan qay darajada foydalannoqda? Hududlarda jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda ularning ishtiroti qanday bo'yapti?

Maxsus savolnomha asosida Samarqand shahri, Bulung'ur, Jonboy, Samarqand va Past Darg'om tumanlaridagi ayrim mahallalar raislari bilan o'tkazilgan suhbatlar ko'rsatdiki, aksarolla hollarda mahalla raislari qonun hujjatlarini bilan o'zlariga berilgan vakolatlarini to'liq bilmaydi.

"Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi Qonunda belgilangan jamoatchilik nazorati shakllari bo'yicha yetarlichka tushunchaga ega emas. Vaholanki, mahallalarning faoliyatini uchun asos hisoblanuvchi "Fuqarolarning o'zin o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi Qonunning 16-moddasi fuqarolarning o'zin o'zi boshqarish organlari tomonidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish shakllari hamda fuqarolarning o'zin o'zi boshqarish organlarning jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda qofsatlatli ariq mustahkam qo'yilgan. O'rganilgan mahallalarning aksariyatida davlat organlari

va tashkilotlari yuborilgan murojaat va so'rovlar ro'yxati yuritilmagan. Bu holat mahallada mas'ul kotib lavozim tugatilgani bilan izohlangan holatlar ham uchradi.

Bulardan tashqari, mahalla fuqarolar yig'inalri o'z hududidagi korxona, tashkilot va idoralar rahbarlarining hisobotlarini eshitib borish vakovatiga ega. Qolaversa, mahallalarda jamoatchilik eshituvlarini tashkil etish jamoatchilik nazoratini amalga oshirish mehanizmlaridan bire hisoblana-di. Lekin aksariyat mahalla fuqarolar yig'inalri qonunda belgilangan bu muhim vakolatlardan to'laligicha foydalananmayapti. Ochig'i aytganda, ayrim fuqarolar yig'inalri yil davomida bir mara ham bunday jamoatchilik eshituvlarini tashkil etmaydi.

Joriy yil 26-sentabrda Prezidentimiz raisligida o'tkazilgan mahalla tizimini yanada kuchaytirishga qaratilgan videoselektor yig'ilishida mahalla raislarining vakolatlari kengaytirishi bo'yicha so'z bordi. Davlat hokimiyyati va boshqaruvi organlarining ko'plab vakolatlari fuqarolik jamiyatini institutlariga berilayotgan bir paytda ular o'zlarining barcha vakolatlaridan to'laligicha foydalanshi lozim. Shunda davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari o'z faoliyatiga alohida mas'uliyat va javobgarlik bilan yondashadi.

Bu borada e'tibor qaratish lozim bo'lgan jihatdardan yana bira, joylarda ta'sirchan va samarali jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun avvalo, jamoatchilik nazoratining shakllari va usullari to'g'risida keng jamoatchilik vakillari, ayniqsa, jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda ularning shakllangan.

Jamoatchilik nazoratini amalga oshiruvchi subyektlar uchun televideeniye va ijtimoiy tarmoqlarda qisqa videolar, animatsion roliklar, infografik posterlar tayyorlab taraqatish, shuningdek, joylarda amaliy seminarlar o'tkazish, nodavlat notijorat tashkilotlar va eksperterni jalb qilgan holda mahallaning jamoatchilik nazorat subyekti sifatidagi faoliyatini kuchaytirishga oid grant loyihalarni amalga oshirish maqsadga muvofiq.

**Dilnur A'ZAMOV,**  
**Demokratik jarayonlarni  
tahliq qilish markazi viloyat  
hududiy bo'linmis yetakchi  
mutaxassisi.**

**BU FAKT!**

Viloyat statistika boshqarmasiga ko'ra, joriy yilning yanvar-sentabr oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi 947,7 milliard so'mdan iborat bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 121,5 foizni tashkil etdi. Bu ulush ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiyoj hajmida 4,6 foizga teng.



man. Masalan, bir bola kelib, onasiga dorilik uchun ozgina asal berishimni so'rabb, besh ming so'm tutdi. Uning mo'litrab turgan ko'ziga qarab, qo'lidagi pulga 50 gramm asal berishim kerakmi? Yo'q, men unday qilmayman. Bir kilogramm asal beraman! Bu kabi insonlarga yarim kilogramm yoki bir kilogramm asalni bepul berganini uchun afsuslanmayman. Qolgani asalarilarning qishki ozuqasi va ro'zg'or tebratish uchun yetarli. Aslida, bu yil asalarilarini Qizilqum cho'liga ko'chirib borishni niyat qilgandim. U yerdagi cho'li o'simliklari tabiiy usulda o'sadi. Ammo Qizilqumga olib borishga mablag'im yetarli emasdi. Aks holda 7 tonna asal olgan bo'lardim.

Tadbirkor otasidan meros qolgan duradgorlik hunari bilan ham shug'ullanadi. Asalarichilikda kerak bo'lgan qutti va ramkalarni o'zi yasaydi.

To'qin SIDDIQOV,  
Baxtiyor MUSTANOV (surat).

## "O'ZBEKISTON-2030" STRATEGIYASI: Davlat boshqaruvi raqamli tizimga o'tadi

Shu yilning 11-sentabrida Prezidentimiz farmoni bilan "O'zbekiston – 2030" strategiyasi tasdiqlandi.

Strategiyada 5 ta assosiy ustuvor yo'naliш belgilab berilgan. Shulardan biri - qonun ustuvorligini ta'minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish yo'naliш. Keling, ushbu yo'naliшning mazmun-mohiyati va ahiamiyati xususida qisqacha so'z yuritilaylik.

Avvalo, strategiyani ishlab chiqishda yangi tahrirdagi Konstitutsiyasini asos bo'lgan. Chunki unda davlat organlari faoliyatining asosiy mezoni - bu inson huquqlari, inson erkinliklari ekani ko'rsatilgan.

E'tiborli jihat, endilikda davlat boshqaruvi raqamli hukumat tizimiga bosqichma-bosqich o'tkazilmoqda. Bevosita bu tizim quyidagi yuqoriga qarab amalga oshiriladi. Quiy deganim, mahallalarda elektron davlat nuqtalarini shakllantirish nazarda tutilgan. Chunki mahalla fuqarolar uchun eng yaqin nuqta va bu yerda o'sha aytlayotgan xizmatlar amalga oshiriladi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada hokimlar xalq deputatlariga Kengashiga raislik qilmasligi haqidagi alohida norma belgilandi va mana shu normaning amaldagi ijrosini ta'minlash uchun ham mazkur strategiyada aniq chorat-tadbirlar belgilab berilgan.

Bugungi kunda yuqoriga qarab amalga oshiriladi. Adliya vazirligi, joylardagi boshqarma va bo'limlari xodimlari mas'ul vazirlar va idoralar bilan birgalikda davlat boshqaruvini raqamli tizimga bosqichma-bosqich o'tkazish, qolaversa, "O'zbekiston - 2030" strategiyasi doirasida normativ-huquqiy hujjalarning loyihalarining sifatini va o'z vaqtida ishlab chiqilishi, kelishilishi, jamoatchilik muhokamasi qo'yilishi bo'yicha tizimi ish olib bormoqda.

**Temur SHUKUROV,**  
**viloyat adliya boshqarmasi katta mutaxassis.**

## Payariqlik Ivan bir kilogramm asalni 5 ming so'mga sotadi. Nega?

**Sven Ivanovich esini taniganidan beri asalarichilik bilan shug'ullanib kelyapti. Uning bobosi o'tgan asrning boshlarida xizmat yuzasidan Moskva- dan Samarqandga, Payariq shaharchasi hududiga ko'chib kelgan.**

- Asalarichilik bilan avvalo, bobom, keyinchalik otam shug'ullangan, - deydi u. - Bugungi kunda ularning ishini o'zim davom ettirypman. 2013-yilda 6,5 tonna asal olganman. Ko'p bo'lganligi uchun xaridorlarga arzon narxa sotganman. Undan topgan daromadimni asalarichilikni rivojlantirishga sarfladim. Bu ishning o'ziga yarasha mashaqqatlari ham bor. Masalan, o'tgan qishda anomal sovuq tufayli ko'p asalarilarin nobud bo'ldi. 50 tagina oilani saqlab qola oldim, xolos.

Yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro'yatdan o'tgan Ivan Petrovichga u yashaydigan Go'zal mahallasidagi hokim yordamchisi ko'magi bilan 30 million so'm imtiyozi kredit ajrat

↓ Payariq tomonlarda

## To'rt sektoring bog'i tashkil etildi



"Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida ayni paytda davom etayotgan kuzgi ko'chat ekish mavsumida tumanning to'rt hududida to'rt sektoring o'z bog'i tashkil etildi. Shuningdek, "onalar bog'i" ham yaratildi.

Mahallalarning har biriga 200 tupdan mevali va manzarali daraxt ko'chatlari o'tqazildi.

## Endi tuman muzeyi bor



Qariyb bir asrlik tarixga ega Payariqda shu paytgacha muzey yo'q edi. Tuman hokimligi va ziyyolar tashabbusi bilan aholi, tashkilot ma'assasalarda saqlanayotgan qadimiy ashyolar jamlangan holda tuman tarixi muzeyiga asos solindi.

Muzey hozircha tuman "Ma'naviyat va ma'rifat" maskanida faoliyat ko'rsatadi. Keyinchalik boshqa binoga o'tkazilishi rejalashtirilgan.

## Maktab "Tashabbusli budget"da yutdi

Fitrat mahallasi aholisi o'tgan yil "Tashabbusli budget"da 97-umumiyo'rta ta'lif maktabi uchun qo'shimcha sinfonalar qurish loyihasi bilan qatnashib, g'olib bo'lgandi.

Natijada 8 ta sinfonasi qurilib, 310 nafardan ortiq o'quvchi ta'lif olayotgan maktabda darslarni bir navbatda tashkil etish imkoniyati yaratildi.

## Olimpiada g'oliblari taqdirlandi

Maktab o'quvchilar o'rtasida fan olimpiadasining tuman bosqichida 102 ta umumta'lif maktabining 107 nafar o'quvchisi g'olib bo'lib, viloyat bosqichiga yo'llanma oidi.

Ularni taqdirlash noodatli tarzda tashkil etildi va tuman markaziga o'quvchilar bilan birga ularning ota-onalari, ustozlari taklif etildi.

Tadbirda Oliy Majlis Senati a'zosi F.Toshev, tuman hokimi I.Jabborov va O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist A.Qorjov ishtirot etib, g'olib o'quvchilar va ularning ota-onalari, ustozlarini tabrikaldi. Ularga tuman hokimligining tashakkurnomalari va sovg'alarini topshirildi.

1. Ingliz tili tarixi va grammatikasi kafedrasi mudiri - 1 nafar, fan doktori, professor yoki fan nomzodi, PhD, dotsent;

2. Ingliz tili nazariy aspektlari kafedrasi mudiri - 1 nafar, fan doktori, professor yoki fan nomzodi, PhD, dotsent;

3. Ispan va italyan tillari kafedrasi mudiri - 1 nafar, fan doktori, professor yoki fan nomzodi, PhD, dotsent;

4. Rus tili va adabiyoti kafedrasi mudiri - 1 nafar, fan doktori, professor yoki fan nomzodi, PhD, dotsent;

5. Tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedrasi mudiri - 1 nafar, fan doktori, professor yoki fan nomzodi, PhD, dotsent;

6. Ingliz tili nazariyasi va amaliyoti kafedrasi professori - 1 nafar, fan doktori, professor;

7. Rus tili va adabiyoti kafedrasi xodim faoliyatini o'rganish mezoni;

## Samarqand davlat chet tillar instituti quyidagi lavozimlarga shartnoma asosida

### TANLOV E'LON QILADI

dotsenti - 1 nafar, fan nomzodi, PhD, dotsent;

8. Gumanitar fanlar va axborot texnologiyalari kafedrasi dotsenti - 1 nafar, fan nomzodi, PhD, dotsent;

9. Fransuz tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti - 1 nafar, fan nomzodi, PhD, dotsent;

10. O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti - 1 nafar, fan doktori, dotsent;

Tanlovda qatnashish uchun quyidagi hujjalarni taqdim etiladi:

1. Rektor nomiga ariza;

2. Ma'lumotni to'g'risidagi diplom-lardan nusxa;

3. Ilmiy ishlar ro'yxati (3.4 shakl tasdiqlangan holda);

4. Passport nusxasi;

5. Ma'lumotnomra (obyektivka);

6. Nizom talabiga asosan pedagog-lardan nusxa;

7. Rus tili va adabiyoti kafedrasi xodim faoliyatini o'rganish mezoni;

**Hujjalarni e'lon chiqqan kundan boshlab, bir oy davomida qabul qilinadi.**

**Manzil:** Samarqand shahri Bo'ston saroy ko'chasi, 93-uy, xodimlar bo'limi.

**Telefon:** +99866-238-29-33.

Ushbu tumanda aholi salomatligini muhofaza qilish, yuqumli kasalliklar tarqalishining oldini olish hamda sanitariya nazorti bo'yicha qanday ishlar amalga oshirilyapti?

Bu savolga viloyat sanitariya-epidemiolog osoyshtalik va jamoat salomatligi boshqarmasi tomonidan Kattaqo'rg'on tumani sanitariya-epidemiologik osoyshtalik va jamoat salomatligi bo'limi faoliyati va tumanda mahallabay ishslash bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar bilan tanishish maqsadida tashkil etilgan press-turda javob izlandi.



Joriy yil tumanda aholining sanitariya epidemiologik xotirjamligini ta'minlash maqsadida bakteriologik va parazitologik laboratoriyalarga 200 million so'mlik as-

## Kattaqo'rg'onda 1600 holatda yuqumli kasalliklar aniqlangan

bob-uskulalar sotib olingan. Shuningdek, laboratoriylar talab darajasida faoliyat ko'rsatishi uchun 95 million so'mlik ozuqa muhitlari, zardoblar va reaktivlar bilan ta'minlangan.

- Yil boshidan buyon fuqaroldardan olin-gan laboratoriya tahlillari natijasiga ko'ra, tumanda yuqumli kasalliklarning 17 turi qayd qilingan va 1603 holatda kasallik aniqlangan, - deydi tuman sanitariya-epidemiologik osoyshtalik va jamoat salomatligi bo'limi boshlig'i Ubaydulla Sagdullayev. - O'tgan yilning shu davriga nisbatan yuqumli kasalliklar 18 foizga kamaygan. Jumladan, sil kasalligi 30 foizga kamaygan bo'lsa, bezgak, gjija hamda virusli gepatitning "b", "s" va "d" ko'rinishlari ko'proq uchramoqda. Joriy yilning to'qqiz oyida 400 kishida virusli gepatitning turli ko'rinishlari kuzatilgan.

Bugungi kunda ushbu virusga qarshi kuchashning asosiy choralaridan biri emlash bo'lib, bir marta kasallikka qarshi emlangan kishi 20 yilgacha gepatitdan himoyalanishi mumkin.

Press-tur davomida ishtirokchilar tuman sanitariya bo'limi tomonidan mahallabay ishslash tizimi asosida amalga oshirilayotgan ishlar bilan tanishish maqsadida Cho'yanchi mahallasida bo'ldi.

- Mahalladagi 806 xonadonda dezinfeksiya, 816 xonadonda sanitariya targ'ibot ishlari olib borildi, - deydi viloyat sanitariya-epidemiologik osoyshtalik va jamoat salomatligi boshqarmasi boshlig'i Mahzuna Nasriddinova. - Boshqarma va uning tuman bo'limi mutaxassislar hamkorligida o'tkazilgan o'rganish davomida artezian quduqlaridan olingan suv mutaxassislar tomonidan tekshiruvdan o'tkazilib, tegishli xulosa-aytildi. Shuningdek, aholi tomonidan iste'mol qilinayotgan oziq-ovqat mahsulotlari sifatini nazorat qilish maqsadida namunalar olinib, sanitariya qoidalariga amal qilish tushuntirildi.

F.RO'ZIBOYEV.

## Suv tejaladi, hosildorlik esa oshadi

Mamlakatimiz rahbari tomonidan shu yil 20-iyun kuni "Ma'muriy islohotlar doirasida suv xo'jaligi sohasida davlat boshqaruvin samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmon imzolandi. Mazkur farmonga asosan, Suv xo'jaligi vazirligi huzuridagi suv xo'jaligi obyektlari xavfsizligini va suvdan foydalishni nazorat qilish inspeksiysi tashkil etildi.

Hujjatda Suv xo'jaligi vazirligi tizimida vazirlikning markaziy apparati suv xo'jaligi sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqishi, uning amalga oshirilishi hamda bu boroda mahalliy yagona davlat ijrosi siyosatini ishlab chiqish, suv xo'jaligi obyektlarining texnik holati, hududlarning suv ta'minoti, yerlarning meliorativ holatiga oid muammolarni aniqlash va boshqa qator vazifalar belgilab berildi. Shuningdek, Suv xo'jaligi vazirligining quy'i bo'g'inda suv resurslarini boshqarish, fermer xo'jaliklari va boshqa suv iste'molchilariga suv yetkazib berishni ta'minlash topshirilgan.

Inspeksiya zimmasiga qator vazifalar qo'yilgan bo'lib, ular bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2023-yilda viloyatda 21104 hektar yermi tomchilik, 2153 gektnari yomg'irlatib sug'orish, 16650 hektar yermi lazerler tekislash belgilab berilgan.

Shuningdek, barcha tumanlarda fermer, klasterlar ishtirokida suv tejovchi texnologiyalarning afzalliklarini tushuntirish bo'yicha doimiy seminarlar olib borilmoqda.

Suv tejovchi texnologiyalarni qo'llayotgan fermerlarga subsidiya mablag'lari ajratilmoqda, shuningdek, ishlat-

gan elektr energiyasi budjet hisobidan to'lab berilishi yo'iga qo'yilgan.

**A'zam BOYMIROV,**  
**Suv xo'jaligi obyektlari xavfsizligini va suvdan foydalishni nazorat qilish inspeksiysi viloyat boshqarmasi bosh mutaxassis.**

Tibbiyotning barcha yo'nalishlari singari stomatologiya sohasidagi ta'lim bevosita amaliy jarayonlar bilan bog'liq. Nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliyotning ham yuqori daraja-da yo'iga qo'yilishi talabalarning o'z bilimini mustahkamlab, o'qishni tugatguniga qadar yaxshi mutaxassis bo'lishida muhim ahamiyatga ega.

## Amaliyot uchun kafedraning o'zida sharoit yaratildi

Samarqand davlat tibbiyot universitetining stomatologiya fakulteti tarkibida yangi yo'nalishdagidagi kafedralar tashkil etilib, sohaning hali o'zimizda keng joriy etilishagan jihatlar mukammal o'rganilmoqda. Jumladan, 2021-yilda fakultetda yangi, og'iz bo'shilig'i jarrohligi va dental implantologiya kafedrasidagi tashkil etilib, talabalar zamон talablarini asosida bilim olishiga imkoniyat yaratildi. Kafedrada 10 nafar assistant-o'qituvchi bo'lib, shulardan to'rt nafar o'qituvchi PhD ilmий darajasisiga ega.

Kafedrada talabalar og'iz bo'shilig'i jarrohligi, bolalar jarrohlik stomatologiyasi, xirurgik parodontologiya, implantologiya hamda boshqa yo'nalishlari tushsilashda tahlil olishadi. Kafedra xodimlari tajriba va kasb mahoratlarni oshirish maqsadida Janubiy Koreya, Germaniya, Rossiya, Belarus, Xitoy kabi davlatlarda malaka oshirib, xalqaro va milliy anjumanlarda faol ishtirot etib kelmoqda. Bundan tashqari, talaba-

lar bo'sh vaqtidan unumli foydalani-shi uchun to'garaklar tashkil etilgan. 2021-2023-yillarda davomida kafedra nomidan 17 nafar talaba xalqaro hamda milliy olimpiada, konferensiyalarda ishtirok etdi. Kafedrada 2023-yilda 10 nafar magistratura rezidentlari o'z magistrilik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi. Hozirgi kunda 12 nafar magistratura rezidenti va 20 nafar klinik ordinotor o'qimoqda.

Joriy yil aprel oyida kafedra qoshida jarrohlik stomatologiya bo'limi ochildi. U yerda talabalar nazariy bilimlarni amaliyotda mustahkamlab, o'z mahoratlarni oshirib kelmoqda. Bo'limga Janubiy Koreyaning OSSTEM 3D rentgen apparati o'rnatildi. Bu nafaqat bemorlarga tez va sifatli yordam ko'satish, talabalar uchun klinik bilimlarni rentgenologik qo'shimcha tekshish usullari bilan mustahkamlash imkonini yaratdi.

**Temur ABDULLAYEV,**  
**kafedra assistenti.**

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasida marhum Kamalova Maloxatga (2014-yil 2-yarvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil:** Samarqand shahri Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 80-uy.

\*\*\*

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Jo'rayev Kamoliddin Muhidinovich notarial idorasida marhum Usmanov Mamatga (2021-yil 6-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil:** Samarqand shahri O'zbekiston ko'chasi, 35-uy.

\*\*\*

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Yusupova Dilsura Hasanovna notarial idorasida marhum Gulamov Xamidga (2001-yil 20-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Yusupova Dil-sura Hasanovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil:** Samarqand shahri Abdurahmon Joniy ko'chasi, 64-uy.

\*\*\*


Samarqand shahridagi "IVA COM-FORT" mas'uliyati cheklangan jamiyatining (STIR: 306698353) dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

\*\*\*

Samarqand shahridagi "FARTU-NA MADAD UNIVERSAL" mas'uliyati cheklangan jamiyatining (STIR: 300446741) dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

BEKOR QILINADI

REKLAMA, E'LONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'londan tezkor, samarali va hamyonbop / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56



DA'VOLAR BO'LSA...

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasida marhum Abusov Dj

# FARZAND TARBIYASI RO'ZG'OR YUMUSHLARI OLDIDA

E'TIBORSIZ ISH BO'LIP QOLDI

Globallashuv davrida milliy qadriyat-larga asoslangan tarbiya, oila va unda ota-onaning o'rni borasidagi azalii an'analarimiz asl mohiyatidan uzoqlashayotgandek. Xo'sh, bugun yet g'oyalar ta'siri va xurujlardan yoshlarni qanday himoyalash mumkin? Ertangi kuminiz egalarining odob-axloqi, bilim va salohiyati, tarbiyasidan ko'nglimiz to'lyaptimi? Jamoatchilik faoli, professor Mamayunus Pardayevga ushbu mavzuda bir nechta savollar berib, olimning ilmiy, hayotiy xulosalarini tingladik.

- Tarbiya hayotimizdagi eng muhim jihatlardan biri. Shunday ekan, farzand tarbiyasini qachondan boshlash lozim?

- Donishmandlar bola tarbiyasiga u hali ona vujudaligidayot kirishishni maslahat beradi. Oilangizga halol luqma bermas ekansiz, tug'ilajak surriyodingiz yaxshi tarbiya topishidan umid qilmasangiz ham bo'ladi. Harom yo'llar bilan topilgan luqmani yeb ulg'aygan bolani har qanday ulug' tarbiyachi eng zamonaviy ta'limot asosida tarbiyalamasin, ko'zlangan maqsadga erishishi amrimahol. Bu borada mavlono Jaloliddin Rumiyning "Masnaviyi ma'naviy" sida ta'sirchan o'gitlar bor. Farzand dunyoga kelganidan so'ng uning tarbiyasini milliy qadriyatlarimiz asosida bosqichma-bosqich, tizmli olib borish lozim.


Bizada negadir ta'lim-tarbiya shaklida, ya'ni avval ta'lim, so'ng tarbiya so'zi ishlatalidi. Aslida esa eng avval tarbiya masalasida bosh qotirish kerak. Men ko'pincha yapon millatining yutuqlariga havas qilib, ulardan misol keltiraman. Yaponlar oltinchi sinfgacha asosan tarbiya darsini o'tadi. Bu paytda bolaning jamiyatga moslashishi, atrof-muhitga munosabati shakllanadi. Shundan so'nggina ta'lim berishga kirishiladi.

- Tarbiyada ota-onaning ishtiroki kamayib boyayotgandek. Farzandlarimizga yetarlichka vaqt ajratyapmizmi?

- Yaqinda bir ma'lumotni o'qib qoldim. Bugun jamiyatimda ota-onalar bir kunda farzand bilan 15-20 daqiqagina muloqtda bo'lyapti, deyilgan unda. Hozir onalar ham xuddi otalar kabi ro'zg'orning kam-ko'stini to'ldirish maqsadida mehnat qilyapti. Farzandlarini yaqinlariga qoldirib, chet mamlakatlarga borib ishlayotgan oilar ko'p. Ammo farzandga mehr degan ulug' tuy'uni ota-onadan boshqa hech kim bera olmaydi. Afsus, ba'zan bola tarbiyasi ro'zg'or yumushlari oldida e'tiborsiz ish bo'lip qolmoqda. Ota-onan mehingga to'ymagan bolaning hayotdan ko'ngli to'lmaydi, alazmada bo'lib o'sadi. Yoshligidan janjalash, birovlarla xalaqat beradigan bo'lib ulg'ayadi. Ota-onan farzandini bu kabi o'ta yo'iga tashlab ketmasligi kerak. Agar ota-onalar bolalariga yaxshi tarbiya bermasa, ularga o'zligini, millatini, dinini, Vatanini tanitmasa va sevdirmasa, o'z burchini ado etmagan bo'ladi.

- Ota-onalar majlisiga faqat onalar boryapti...

- Davlat idorasidagi ish, tadbirkorlik, kunlik ijtimoiy, shaxsiy munosabatlar hayotimizda, albatta, muhim. Ammo bu farzandlarimiz uchun ozgina vaqt ajratishdan



muammolar o'ylab topilib, tarbiya sohasidagi xatolarni xaspo'shlashga harakat qilinayapti. Sharq oilarida esa bu muammoning bo'lishi mumkin emas. Chunki bizda bolalar kichikligidanoq kattalarni hurmat qilish, ularning aytganiga qu-loq solish, gap qaytarmaslik, har bir ishda maslahat so'rash ruhida tarbiya qilinadi. Oila instituti biz uchun juda katta qadriyat.

Bundan 30 yillar avval ajrimlar 7 foizga yetmasdi. Afsuski, oliga bo'lgan xurujlar oqibatida bugunga kelib ajrimlar uch baravarga oshdi. Oilaning buzilishi - bu shunchaki er-xotin ajrashib ketdi, degani emas. O'tada farzandlar taqdri bor. Olibay baxtni ko'rmagan bolalar ertaga o'zi ham baxtli oila qura oladimi, degan savol tug'iladi. Bu yo'lda ayrim kuchlar tomonidan millatlarning naslini susaytirishga urinishlar bo'lyapti. Giyohvondlik, ichkilik, buzuqlik ko'paygan jamiyatda ham jismomon, ham ruhan nosog'lom avlod tug'iladi. Bu oila institutiga katta zarba bo'lmoqda. Oqibatda bizning mentalitatimiza yot bo'lgan birovni o'ldirish, er yoki ayolga xiyonat qilish holatlari ko'paydi.

- Tarbiyada televide niyedagi ayrim nobop ko'rsatuv va filmlar, ijtimoiy tarmoq, atrof-muhitning salbiy ta'siri kabi chalg'ituvchi omillar ko'paydi. Bu ota-onalarga ikki karra mas'uliyat yuklayapti.

- Axborot vositalarining rivojlanishi natijasida internet, uyalı telefon, telekomunikatsiya vositalari kirib kelishi, bular orqali taklif etilayotgan "ommaviy madaniyat" ko'p hollarda yoshlarni milliy qadriyatlarimizdan uzoqlashtirib qo'ymoqda. "Ommaviy madaniyat" ning turli xil ko'rinishlari yoshlar orasida tez va tobora keng tarqalyapti. Bular asosan kiyinshida, qiziqishlarda, bo'sh vaqtini o'tkazishda, diding sayozlashuvida, milliy qadriyatlariga munosabatda namoyon bo'lmoqda. Yot qadriyatlarni o'zida ifoda etayotgan "madaniyat" yoshlarimizda xudbinlik, andishasizlik, behayolik va zo'ravonlik, milliy qadriyatlariga va ijtimoiy manfaatlarga bepisandlik munosabatida avj olyapti.

Har bir axborot mohiyatida tarbiyaga ta'sir etuvchi xitoblar, urinishlar bor. Afsuski, bu axborotlarning asosiy qismi yoshlarning qimmatli vaqtini olib, ilmga, qadriyatga emas, nobop yo'llarga yetaklaydi. Ammo yoshlarni zamonaviy texnologiyalar yutuqlaridan butunlay bebahra qoldirmay, undan unumli, ezuq maqsadda foydalanihisi o'rgatish lozim. Tarbiya faqat taftish emas, farzandni doim nazoratga olish, kuzatib, yo'l-yo'riq ko'rsatib borish degani. Bu o'rinda biz kattalardan ham zamonaviy bilim va texnologiyalar o'rganish, tezkorlik va e'tiboni talab etiladi. Bu texnologiyalarda o'z qadriyatlarmiz, urf-odatlarimizni targ'ib qilishimiz, faqat taqiqlash emas, muqobil yo'llarni taklif qilishimiz kerak.

**Sulaymon MARDIYEV  
suhbatlashdi.**



*Ibrat*

lar ekan, endi ularni qanday rozi qilaman, degan o'ylar o'tardi uning xayolidan. Kutilmaganda vaziyat teskaris tus oldi.

- Mana bu bizdan sizga to'yonha, deya Qo'ziboy akaga tugilgan belbog'ni uzatdi hofiz.

Qo'ziboy aka pullarni qaytarib bermoqchi bo'ldi. Ammo hofiz unamadi. Xalq ularni qarsaklar bilan kuzatib qo'ysi.

Hikoyadagi Qo'ziboy aka shu mahallaning go'rkovi edi.

Hofiz esa O'zbekiston xalq artisti, xonanda, sozanda va mashhur bastakor Komiljon Otaniyozovdir. Bu hayotiy voqeя biz kim bo'lismizdan qat'i nazar, inson bo'lib qolishimiz kerakligiga ishora. Zora, bundan vazifasi elga xizmat qilish bo'lgan, ammo oyod'i yerdan uzilgan ayrimlar ibrat olsa.

**Abdurahim YUSUFIV.**

Professor Shuhrat Sirojiddinov olimlik sa-lohiyatini bugungi kungacha nashr etilgan mumtoz adabiyot muammolariga bag'ishlangan 30 dan ortiq kitob va monografiya, o'quv qo'llanmalarida namoyon etib kelmoqda. Ilmiy-ijodiy faoliyatini "XIX asr Kattaqo'rg'on shoirlari ijodida Alisher Navoiy an'analar" (1991) mavzusidagi nomzodlik ishi bilan boshlagan yosh olim keyinchalik "Navoiy navosidan bahra olib", "Navoiy zamondoshlari e'tirofida", "XV-XVI asrlar tarixiy va taz-kira – esdalik asarlarida Alisher Navoiy hayoti va faoliyatiga oid XV-XIX asrlarda yaratilgan fors manbalari" (1998) mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasi bilan bu boradagi ilmlarni yanada boyitdi.



## YIRIK SHARQSHUNOS OLIM

Olim Navoiy hayoti faoliyati va ijodi haqida bildirgan fikrlari o'zgartmasday qabul qilib kelingan tanqli sharqshunoslar - V.Bartold, Y.Bertels kabi olimlarning fikriga nisbatan ilmiy asosga ega va xolis e'tirozlarini bildirishi bizning ongimizda yillar mobaynida shakllangan rus yoki G'arb olimlari aytgan fikr doimo to'g'ri bo'ladi va har doim ularning fikriga tayanish kerak degan an'anavy qarashlarimizni yo'qqa chiqardi. Chunonchi, Navoiyning Samarqandga kelishi bilan bog'liq ma'lumotlar xususida to'xtalar ekan, olim yozadi: "Bertels ham "Navoiy" monografiyasida Navoiyning Samarqandga borganligini surgn hisoblab, bu paytlarda Samarqand ilm-fan markazi emas edi, deb fikr bildiradi... U o'ta sinchkov man-bashunos va bilimdon navoiyshunos bo'lsa-da, Bartold konsepsiyanini buzmashish uchun uning xulosalar bilan manbalor orasidagi ziddiyati fikrlarga aniq chek qo'ymagan va barchasini bir-biriga moslashtirishga majbur bo'lgan". Alisher Navoiy: manbalarining qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili" tadqiqotida o'nlab bunday asosli mulohazalar bildirilganini ko'rishimiz mumkin.

Sh.Sirojiddinovning islom falsafasi va ilohiyotshunoslikka oid "So'fi Olloyor ilohiyoti" (1-2 qism), "Islom falsafasiga kirish: kalom ilmi", "Ilm va taxayyul sarhadlari", "O'zbek mumtoz adabiyotining falsafiy sarchashmalari", "История религии" kabi tadqiqotlarda.

Sharq, xususan, o'zbek mumtoz adabiyotining diniy-falsafiy negizini tekshirish kerak degan an'anavy qarashlarimizni o'qqa chiqardi. Chunonchi, Navoiyning Samarqandga borganligini surgn hisoblab, bu paytlarda Samarqand ilm-fan markazi emas edi, deb fikr bildiradi... U o'ta sinchkov man-bashunos va bilimdon navoiyshunos bo'lsa-da, Bartold konsepsiyanini buzmashish uchun uning xulosalar bilan manbalor orasidagi ziddiyati fikrlarga aniq chek qo'ymagan va barchasini bir-biriga moslashtirishga majbur bo'lgan". Alisher Navoiy: manbalarining qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili" tadqiqotida o'nlab bunday asosli mulohazalar bildirilganini ko'rishimiz mumkin.

Sh.Sirojiddinovning matnshunoslik va manbashunoslik borasidagi "O'zbek matnshunosligi qirralari", "Matnshunoslik saboqlari", "Hijriy va milodiy yillarni o'zaro tabdil qilish usullari" kabi matnshunoslik yo'nalishidagi ishlari nazari va amaliy matnshunoslik rivojiga katta hissa bo'lib qo'shilgan muhim tadqiqotlardir. Olimning o'zbek matnshunosligi tarixiy taraqqiyot bosqichlari, takomillashuv jarayonlarini tekshirishga hamda o'zbek matnshunosligining o'ziga xos nazari va amaliy prinsiplarini Sharq matnlari xususiyatlardan kelib chiqib shakllantirishga qaratilgan izlanishlari matnshunoslik fanini yangi bosqichga olib chiqishdagil amaliy harakatlardan bo'ldi.

Professor Shuhrat Sirojiddinovning islom falsafasiga bag'ishlangan "O'zbek mumtoz adabiyotining falsafiy sarchashmalari", "Islom falsafasiga kirish: kalom ilmi" va "История религии" va boshqa shu singari tadqiqotlari o'zbek mumtoz adabiyoti falsafasi, navoiyshunoslik, o'zbek adabiyoti tarixi borasidagi bilimlarimizni to'ldirsa, "Alisher Navoiy: manbalarining qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili" nomli katta tadqiqoti Alisher Navoiy va bilan bog'liq muammolar yechimi bilan birga, matnshunoslik, manbashunoslik, mantiq, falsafa va tarix sohasidagi bilimlarimizni boyitadi, bu boradagi dunyoqarashimizni kengaytiradi.

**Zebiniso XURRAMOVA,  
SamDChTI Yaqin Sharq tillari kafedrasini  
o'qituvchisi, dotsent.**

## Kishini yaxshilik ulug'laydi

Bu voqeа 1982-yilning kech kuzida bo'ldi. Samarqand shahridagi Urganch yo'lining tor va boshi berk ko'chalaridan biridagi pastak, tomlari loysuvoq uyda Qo'ziboy ismli kamsuqum bir odam o'g'liga sunnat to'yi berayotgan edi. Kutilmaganda darvoza oldiga yangi "Vologa" mashinasi kelib to'xtadi. To'y egasi odamlardan ajralib, notanish mehmonlarga peshvoz chiqdi.

- Assalomu alaykum, xush kelib-siz!

- Assalomu alaykum, biz Urgutga borishimiz kerak edi. Adashib, shu ko'chaga kiribmiz, - dedi ulardan biri.

- Yondagi ko'chamiz Urgutning

yo'li. Mehmom atoi Xudo, deyishadi bida. Bugun men o'g'limga sunnat to'yi beryapman. To'ya qirmaidan ketsangiz, xafa bo'laman. Turkmanistonidanmisizlar? - ularning shevasiga ishora qildi Qo'ziboy aka.

- Yo'q, biz Xorazmdanmiz. Kechga Urgutda to'ymiz bor edi. Siz o'zingiz kim bo'lasiz? - so'radi mo'ylovli mehmon.

Qo'ziboy aka, unga yaqinroq kelib, kasbini aytdi va balandroq ovozda "Men xaloq xizmatidam", deb qo'shib qo'ydi.

Shunda mo'ylovli kishining ishorasi bilan mashinada qolgan boshqa mehmonlar ham turlu musiqa asboblarini ko'tarib tushishdi.

- Sizlar artistmisizlar? - hayron bo'lib so'radi Qo'ziboy aka.

- Bizlar ham xalk xizmatidagi odamlarmiz, - deya javob qaytardi mehmon.

Suhbatni kuzatib turganlar baralla kulib yuborishdi.

Hovlining to'riga qoqilgan gilam oldidagi chorpoyada o'tirganlar turib,

mehmomlarga joy berdi. Ular barcha bilan ko'rishib, bir dasturxon atrofida o'tirib, choy ichishdi. Nafas rostlangach, mo'ylovli mehmon torini olib, shirin ovoz bilan ashula aytishni boshladi.

Bir pasda to'yxona odamlar bilan to'idi. Hovliga sig'maganlar bo'shni larning tomlariga chiqib, hofizu sozandalarni tinglar, ularning kuyiga jo'r bo'lib bosh chayqashardi.

Hofiz to'ya qariyb ikki soat dam olmasdan qo'shiq kuyladı. Qo'ziboy akaning xursandchilining cheki yo'q edi.

To'y qizigandan qizidi. Tapchan o'rtasiga qo'yilgan belbog'ga raqqosalar, hofizning shirali ovoziga, mahoratiga qoyil qolgan tomoshabinlar pul tashlab ketishardi. Bir zumda belbog' ham yaxshigina semirdi.

- Qo'ziboy aka, sizni hofiz chayqapti, - dedi mehmonlardan biri.

Bu chaqiriq to'y egasining boshiga oq'riq bo'lib kirdi. Bular katta artist-

lar ekan, endi ularni qanday rozi qilaman, degan o'ylar o'tardi uning xayolidan. Kutilmaganda vaziyat teskaris tus oldi.

- Mana bu bizdan sizga to'yonha, deya Qo'ziboy akaga tugilgan belbog'ni uzatdi hofiz.

Qo'ziboy aka pullarni qaytarib bermoqchi bo'ldi. Ammo hofiz unamadi. Xalq ularni qarsaklar bilan kuzatib qo'ysi.

Hikoyadagi Qo'ziboy aka shu mahallaning go'rkovi edi. Hofiz esa O'zbekiston xalq artisti, xonanda, sozanda va mashhur bastakor Komiljon Otaniyozovdir. Bu hayotiy voqeя biz kim bo'lismizdan qat'i nazar, inson bo'lib qolishimiz kerakligiga ishora. Zora, bundan vazifasi elga xizmat qilish bo'lgan, ammo oyod'i yerdan uzilgan ayrimlar ibrat olsa.

**Abdurahim YUSUFIV.**

**MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi**

**Bosh muharrir: Farmon TOSHEV**

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 16 349 nusxada chop etildi. Buyurtma 589. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

**Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.**